



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 5 – sinf
adabiyot fanidan IV chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-adabiyot fanidan IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
IV chorak				
1.	Hamid Olimjon. “O‘zbekiston” she’ri	1		
2.	Tadqiqot o‘tkazamiz	1		
3.	Janni Rodari. “Hurishni bilmaydigan kuchukcha” ertagi. (<i>Adabiy ertak haqida</i>)	1		
4.	Janni Rodarining “Burchaklari yo‘q shahar” ertagi	1		
5.	O‘zimiz ertak to‘qiyamiz	1		
6.	Masallar. Ezop masallaridan namunalar: “Echki va podachi”, “Ikki do‘st va ayiq”, “Sichqonlar kengashi”, “Bo‘ri bilan laylak”	1		
7.	Ivan Krilov. “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Kvartet” masallari	1		
8.	Muxtor Xudayqulov. “Yo‘lbars va mosh”, “Ikki kitob” masali	1		
9.	Men ham masal yoza olaman	1		
10.	BSB-4. Taassurot yozish (50 ball)	1		
11.	Xudayberdi To‘xtaboyev. “Sehrli qalpoqcha” 1-bob: Ko‘chaga quvildim.	1		
12.	“Sehrli qalpoqcha” 2-bob: Shaytonning yelkasiga igna sanchdim	1		
13.	“Sehrli qalpoqcha” 3-bob: Baxtim kulib boqqan edi.	1		
14.	Choraklik loyiha ishi	1		
15.	CHSB-4 (40 ball)	1		
16.	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hamid Olimjon. “O‘zbekiston” she’ri

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevis, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

kundalik faoliyatda turli chizmalarni o‘qiy olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Hamid Olimjon 1909-yilning 12-dekabrida Jizzax shahrida dunyoga kelgan. U shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritgan.

O‘zining “Ko‘klam”, “Tong shabadasi”, “Daryo kechasi”, “O‘lka”, “Baxt” nomli to‘plamlari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan iste’dod sohiblaridan biridir. U 1944-yilning 3-iyulida vafot etgan.

Shoirning onasi Komila aya xotiralaridan: "... bolaginam yoshligidan boshlab cho‘pchaklarni tinglagani-tinglagan, o‘zi ham erta-yu kech nimalamidir yozgani-yozgan edi. Uni ng qistovi bilan men kechalari ertak aytganim-aytgan edi. U men aytgan ertaklarga miriqmay turib uxlay olmasdi. Xalqning g‘aroyib ertaklariga juda qoyil qolardi, unga alohida manzur bo‘lganlari gashti bilan necha kunlar lol bo‘lib yurar edi... Men o‘sha yillarda Hamidni qiziqqiziq ertaklar aytib uxlatardim. Hozir bo‘lsa, o‘g‘Hm yozgan ertaklarni, dostonlarni o‘qib uxlayman”.




Hamid Olimjon turmush o‘rtog‘i shoiri Zulfiyaxonim bilan.

Tanishing: HAMID OLIMJON



1. Yosh Hamid oyisidan eshitgan cho'pchak, ertaklardan so'ng "o'zi ham erta-yu kech nimalamidir yozgani-yozgan" ekan. Sizningcha, u nimalar haqida yozgan bo'lishi mumkin?
2. Kattalar ham ertak o'qib turishi kerak deb hisoblaysizmi? Nima uchun?



Aziz o'quvchi, siz Vatan haqidagi she'rlarni o'qiganingizda asosan nimalarga e'tibor qilgansiz? Ulardagi qaysi jihatlar ko'nglingizdan chuqurjoy olgan? Misollar keltiring. Quyida Hamid Olimjonning e'tiboringizga havola qilinayotgan she'ri ham Vatan haqida. Mutolaa davomida Vatan, u bilan bog'liq tuyg'ularning ifodalanishiga diqqat qiling. Nima uchun Vatan tuyg'usi muqaddas va tengsizligi haqida o'ylab ko'ring.

O'zbekiston

O'zbekiston

Vodiylarni yayov kechganda,
Bir ajib his bor edi manda...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo
O'xshashini topmasdim aslo.
O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston
Dostonlarda bitgan guliston –
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin;
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola,
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan - kunga o'sadi paxta,

Cho'llarida chopmas ilonlar;
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti.
Chanqov qolib yo'lovchi o'lmas,
Har burchakda boshkesar bo'lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go'daklarni yutmas och o'lim,
Odamga baxt va tole' yordir –
Bu shundayin ajib diyordir.
Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki husnga boydir,
Uning eng zo'r ko'zgusi oydir;
Bir parcha o't bo'lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon. –
Bu shundayin ajib diyordir.

Barg chiqadi har bir daraxtda.
Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil.
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim humordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan,
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda,
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir:
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o'smas tikonlar,

Shuning uchun tinchdir ul ko'ngil,
Shuning uchun osoyishdir ul.
Shuning uchun somonda yotmas,
Shuning uchun sovuqda qotmas,
Yovlariga osmon tutundir,
Shuning uchun bag'ri butundir.
Shuning uchun yopinmagay xas,
Shuning uchun kiyinar atlas.
Shunday o'lka doim bor bo'lsin,
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.
Omon bo'lsin og'aynilari,
Omon bo'lsin do'stlarning bari.
Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Bahorda yam-yashil qir-adir, vodiylar bo'ylab quloch yoyib yugurganmisiz? Yuzingizga urilgan yengil shabada va toza havodan to'yib-to'yib nafas olganingizda qanday "ajib his"larni tuygansiz?

2. Shoirning yurt kezib aytgan "o'xshashini topmasdim as/o" tarzidagi iqrorini qanday tushundingiz? Siz yashab turgan joyda ham "o'xshashi yo'q" narsalar bormi?

Fikringizni asoslashga urining.

3. "Chiroylidir go'yo yosh kelin, Ikki daryo yuvar kokilin" misralarini o'qiganingizda qanday manzara ko'z oldingizga keldi? Shoir bu o'rinda nimani nazarda tutgan?

4. She'rda "qip-qizil /o/a''ning "yoqut piyola"ga qiyoslanishidagi badiiy go'zallikni angla-dingizmi? Xuddi shunday o'xshatishlardan yana topib, ko'rsating.

5. Sizningcha, "El ko'zidan qochadi uyqu" deganda shoir nimani nazarda tutgan bo'li-shi mumkin? Bu ifodadan qanday tanish holat ko'z oldingizga keldi?

6. "Bunda qorning taglarida qish Bahor uchun so'ylaydi olqish" misralarida qanday tabiat hodisasi tilga olingan bo'lishi mumkin?

7. Shoir "Dalasida o'smas tikonlar, Cho'llarida chopmas ilonlar. Qush uchganda kuy-mas qanoti, Odam o'tsa, qurimas zot!"satrlari orqali nima demoqchi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

Sinfdagi o'quvchilar bilan kelishgan holda 3 guruhga bo'lining. Har bir guruh she'rda tilga olingan bitta daryoni tanlab, u haqida taqdimot tayyorlasin. Bunda quyidagi bosqichlarga amal qiling:

1-qadam. Guruh tanlagan daryo vatanimizning qaysi hududlaridan o'tishini aniqlash.

2-qadam. Ushbu daryoning rasmlarini topish.

3-qadam. U bilan bog'liq ekologik muammolarni aniqlash.

4-qadam. Ekologik muammolarga yechim bo'ladigan 3 ta taklif tayyorlash.

5-qadam. Tayyorlangan ishni (yozma ish yoki taqdimot) navbatdagi darsda sinfdoshlar bilan muhokama qilish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Tadqiqot o`tkazamiz

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojida o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevis, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

She'r va surat uyg'unligini tadqiq qiling. Buning uchun quyidagi ikki bosqichni sinfda, uchinchi bosqichni esa uyda bajaring.

1-bosqich. Taniqli mo'yqalam ustasi Ortiqali Qozoqovning quyidagi suratini sinchkovlik bilan kuzating.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

2-bosqich. Suratni “o‘qish”ni o‘rganamiz:

1. Tasvirda nimalarni ko‘rayotganingizni daftaringizga yozing. Qaysi obraz yoki detallar yaqin, o‘rta va olis masofada tasvirlanganini yozing.
2. Manzarada qanday daraxtlarni ko‘ryapsiz (ularning gullari, rang va shakllariga e’tibor qiling)? Javoblarni daftaringizga qayd eting.
3. Suratda e’tiboringizni tortgan jihatlar qaysi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: 3-bosqich. Tasviriy san’at asarini she’r mazmuni bilan qiyoslaymiz:

1. She’r bilan suratni taqqoslang. She’rdagi qaysi so‘z, ibora yoki jumlar manzara mazmuniga mos keladi? Nima uchun?
2. Sizningcha, suratdagi yolg‘iz kulba nimaning ifodasi? Ufq, bulutlar, bog‘ tasviri-chi? She’r matnidan shu tasvirlarga uyg‘un satrlarni aniqlang va yozing.
3. Ikki san’at asari (she’r va surat)ning farqli jihatlarini yozing. Qaysi birining ta’sirchanligini yuqori baholaysiz? Javobingizni asoslang.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

52 listdan iborat adabiyot fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar